

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI  
TARBIYALANUVCHILARIDA IJTIMOYIY KOMPETENSIYANI  
SHAKLLANTIRISH METODIKASI**

*Polvannazarova Oygul Ozad qizi*

*Urganch Ranch texnologiya universiteti,*

*Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi.*

*Anatatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy kompetensiyaning ahamiyati va rivojlanish jaroyoni tahlil qilinadi. Maktabgacha yosh shaxsning ijtimoiy ko'nikmalari rivojlanishidagi muhim bosqich hisoblanadi. Maqolada ijtimoiy kompetensiya tarkibiy qismlari va uning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, bolalarda muloqot qobiliyatlarini oshirish, jamoaviy hamkorlikni rivojlantirish va hissiy boshqaruvni rivojlantirish usullari aytib o'tilgan. Mazkur maqola maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasi va ta'limiga qiziqqan tarbiyachi va ota-onalar va tadqiqotchilar uchun juda foydali ma'lumot beradi.*

*Kalit so'zlar. ijtimoiy kompetensiya, maktabgacha ta'lim, maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi, muloqot qobiliyati, jamoaviy hamkorlik, kompetensiya.*

Hozirgi zamon jamiyatida muvaffaqiyatli hayot kechirish va samarali faoliyat yuritish uchun shaxsning ijtimoiy kompetensiyasi katta ahamiyatga ega. Maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiy rivojlanishning muhim bosqichida bo'ladilar. Bu davrda ularning ijtimoiy kompetensiyasi, jamiyatda samarali muloqot qilish, boshqalar bilan munosabatlarni yo'lga qo'yish qobiliyatlari shakllana boshlaydi. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy kompetensiyaning ahamiyati, rivojlanish omillari haqida ma'lumot beriladi.

Bugungi kunga kelib ijtimoiy kompetensiyaning mohiyati kundan kunga oshmoqda. Chunki hozirda ko'pchilik bolalarda agressiv munosabatlar ko'payib

ketgan. Ijtimoiy kompetensiya esa bolalardagi yomon hulq-atvorni yo'qotishga, kattalar va tengdoshlari bilan to'g'ri muloqot qilishga zamin yaratadi.

Ijtimoiy kompetensiya - shaxsning jamiyatda muloqot qilish va jamoalarda hamkorlik qilish bilan birga boshqalar bilan ijobiy munosabatlarni o'rnatish qobiliyatidir. Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy kompetensiya quyidagi ko'nikmalarini o'z ichiga oladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar tengdoshlari va kattalar bilan fikr almashish va ular bilan muloqot qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Shu bilan birga, bolalar umumiy maqsad yo'lida hamkorlikda ya'ni tengdoshlari bilan birgalikda ishlash ko'nikmasi oshadi. Shuningdek, bolalarda o'zini anglash va boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish va ularga mos ravishda javob berish ko'nikmasi shakllanadi.

Jamoaviy faoliyat davomida bolalar o'zaro hurmatni va axloqiy me'yorlarga rioya qilish ko'nikmasini oshiradi.

Ijtimoiy kompetensiya bolalarning guruhda va jamoada o'zini tutishini belgilovchi asosiy ko'nikmalardan biri hosiblanadi.

Misol uchun : 1. Tengdoshlari bilan sog'lom munosabatlarini yo'lga qo'yadi. Natijada do'stona munosabatlarni rivojlantiradi.

2. Bolalar o'zini anglashi va o'z his-tuyg'ularini boshqarish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

3. Shu bn birga : bolalarning bilim olishi, sinfda va dars jarayonida o'zini tutish qobiliyatlarini mustahkamlaydi.

Ijtimoiy kompetensiyaning shakllantirishiga ta'sir etuvchi omillar.

1. Maktabgacha ta'lim va tarbiya muhiti:

Tarbiyachi va tengdoshlari bilan munosabatlar bolaning ijtimoiy tajribasini oshiradi, ya'ni jamoaviy o'yinlar va mashg'ulotlar orqali ijtimoiy kompetensiyasi rivojlanadi.

2. Oilaviy muhit:

Avvalo oila ijtimoiy kompetensiyasining birlamchi rivojlanish manbayi hisoblanadi. Ya'ni ota-onalarning mehribonligi bolalarni qo'llab - quvvatlashi va

ular bilan doimiy muloqot qilib borishi bolaning ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Shuningdek, bolalarning qiziqishlari va qobiliyatlari ularning ijtimoiy kompetensiyasining rivojlanish darajasiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy kompetensiyasining rivojlanish usullari.

1. Rolli va sujetli o'yinlar.

Bolalar turli Rolli-sujetli o'yinlar orqali rol ijro etish bilan birga ijtimoiy vaziyatlarni tushunishni o'rganadilar.

2. Jamoa va guruhlarda suhbat va o'yinlar orqali bolalarning muloqot ko'nikmasini oshirish mumkin.

3. Ota-onalar va tarbiyachilar ijtimoiy qoidalarni bolalarga oddiy vaziyatlar orqali tushuntirishlari ham mumkin.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy kompetensiyaning rivojlanishi ularning jamiyatda muvaffaqiyati moslashuvi uchun juda muhimdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishda oila, tashkilot va tarbiya tizimi muhim rol o'ynaydi. Shu bois, bolalarga tog'ri tarbiya va imkoniyat yaratish orqali ularning shaxsiy va ijtimoiy hayotga tayyorlanganligini ta'minlashimiz mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

1. Ananiev B. G. " Shaxs rivojlanishining psixologik qonuniyatlari"
2. Boqiyev M. A "Maktabgacha yosh bolalar rivojlanishi" Toshkent : 2020.
3. Qodirova. D. " Maktabgacha ta'limda ijtimoiy kompetensiya rivoji" Toshkent ; Fan va texnologiyaga 2018.
4. Jalolova N. "Didaktik o'yinlarning ijtimoiy rivojlanishiga ta'siri" Toshkent ; Ilmiy ta'lim, 2021.
5. O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'limning davlat standarti" (2018).